

МУГАЛЛИМ ҲАМ ҰЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИҮ



ISSN 2181-7138

№ 1 2022 жыл

Илимий-методикалық журнал

Редактор:

А. Тилесенов

Редколлегия ағзалары:

Макәсіт АЙЫМБЕТОВ
Нагмет АЙЫМБЕТОВ
Кеңесбай АЛЛАМБЕРГЕНОВ
Дишишхұжа АЙТБАЕВ
Гулбахар АБЫЛОВА
Өсөрбай ӘЛЕҮОВ
Аскар ДЖУМАШЕВ
Гүлнара ЖУМАШЕВА
Батыrbек КАНПЕРГЕНОВ
Амангелди КАМАЛОВ
Сарсен КАЗАХБАЕВ
Гулмира КАРЛЫБАЕВА
Сабит НУРЖАНОВ
Уролбай МИРСАНОВ
Арзы ПАЗЫЛОВ
Зухра СЕИТОВА
Айдан СУЛТАНОВА
Тажибай УТЕБАЕВ
Ризамат ШОДНИЕВ
Ойбахор ШАМИЕВА
Бекзод ХОДЖАЕВ
Дүстназар ХИММАТАЛИЕВ
Гузрухсөр ЭРГАШЕВА

Шолжемлестириушілер:

Қарақалпақстан Республикасы
Халық ғылымленидериү
Министрлігі, ӨЗПИИИ
Қарақалпақстан филиалы

Өзбекстан Республикасы
Министрлөр Кабинеті
жанындағы Жөндарғы
Аттестация Комиссиясы
Президиумының 25.10.2007
жыл (№138) карары менен
дизимге алынды

Қарақалпақстан Баспа соз ҳам
хабар агентligи тәрепинен
2007-жылы 14-февральдан дизимге
алыны №01-044-саылы гүйалық
берилген.

Мәнзил: Нокис қаласы,
Ерназар Алакөз кошеси №54
Тел.: 224-23-00
e-mail: uzniipnkkf@mail.uz,
mugallim-pednauk@mail.uz
www.mugallim-uzliksiz-bilim.uz

Журналга келген мақалаларга жууап қайтарылмайды, журналда
жәрияланған мақалалардан алынған узиндер «Мугаллим ҳам ұзликсиз
билимленидериү» журналынан алынды, деп корсетилиүи шарт. Журналга 5-6 бет
квлеминдеги материаллар еки интервалда *TIMES NEW ROMAN* шриф тинде
электрон версиясы менен бирге қабыл етиледи. Мақалада көлтирилген
маглыұматларга автор жууапкер.

МАЗМУНЫ**ТИЛ ҲЭМ ӘДЕБИЯТ**

<i>G'anibayeva B., Abduraxmanov M. Tilimizdagи omonim so'zlarning ahamiyati va tahlili.....</i>	4-8
<i>Юсупова Ф.М. Рус тили фани ўқитувчисида маданиятлараро мулоқот компетенциясини шакллантиришининг ўзига хос хусусиятлари.....</i>	8-15
<i>Нарманов А.Х. Болалар нутқини ривожлантириши илмий-педагогик муаммо сифатида.....</i>	15-19

ПЕДАГОГИКА, ПСИХОЛОГИЯ

<i>Ботирова Ш.И. Принцип социального партнерства в преподавании инновационного кластера педагогического образования</i>	20-23
<i>Tashtemirova S.A., Tashtemirov R.A. Pedagogical approaches in education and their importance.....</i>	24-30
<i>Жабборова О.М. "Тарбия" фани ва унга оид меъёрий ҳужжатлар</i>	30-36
<i>Дусчанова Н.С. Шахсга йўналтирилган ёндашув афзалликлари</i>	36-42
<i>Azimov D.G'. Imkoniyati cheklangan bolalarni o'qitish va tarbiyalashda musiqaning motivatsion va didaktik imkoniyatlari</i>	42-47
<i>Tashpo'latova D. Integratsiya asosida ta'lif samaradorligini oshirish usullari</i>	47-52
<i>Raxmonov N.B. Inson hayoti xavfsizligini ta'minlash masalasida pedagogik ta'lif-tarbiya zarurati</i>	52-58
<i>Kurbanova F.K. Chet tilini o'qitish sharoitida bo'lajak o'qituvchilarning madaniyatlararo kompetensiyasini rivojlantirish usullari.....</i>	58-66
<i>Shaymatov J.N. Ofitser-o'qituvchining kasbiy-pedagogik kompetentligini rivojlantirish asosida innovatsion faoliyatga tayyorlash.....</i>	66-72
<i>Eshqoraev Q.A. Masofaviy ta'lif modellari va uning xususiyatlari.....</i>	72-78

МИЛЛИЙ ИДЕЯ ҲЭМ РУЎХЫЙЛЪҚ ТИЙКАРЛАРЫ, ТАРИЙХ, ФИЛОСОФИЯ

<i>Мусурмонов Р., Мусурмонова М. Талабаларга Ал-ҳаким ат-Термизийнинг илмий-педагогик меросини ўргатиш замон талаби</i>	79-85
<i>Ахмаджонов Д.Б. Герменевтик ёндашув асосида бағрикенглик компетенциясини ривожлантириши</i>	85-89

ФИЗИКА, МАТЕМАТИКА, ИНФОРМАТИКА

<i>Исмаилов А.А. Роль мультимедийных технологий в преподавании физики.....</i>	90-94
--	-------

БАСЛАЎЫШ КЛАСС, МЕКТЕНКЕ ШЕКЕМГИ ТЭРБИЯ

<i>Эшманова Н. Бошлангич синф ўқувчиларида ёзма нутқни такомиллаштириши тизими.....</i>	95-99
---	-------

ФИЗИКАЛЫҚ ТЭРБИЯ ҲЭМ СПОРТ

<i>Мардонов Ш.К., Абдувайитова Д. Ўсмирларда спорт эстетикасига оид тасаввур ва қизиқишиларини шакллантириши.....</i>	100-106
---	---------

ТИЛ ҲЭМ ӘДЕБИЯТ



TILIMIZDAGI OMONIM SO'ZLARNING AHAMIYATI VA TAHLILI *G'anibayeva B.*

Toshkent viloyati Chichiq davlat pedagogika instituti

Abduraxmanov M.

Guliston davlat universiteti o'qituvchisi

Tayanch so'zlar: grammatika, omonim, til, tafakkur, so'z, leksika, fonologiya, fikr, ma'no, sinonim, polisemiya, fraziyoalogizm, graduonimiya, funksionimiya, ierarxonimiya, kontekst.

Ключевые слова: грамматика, омоним, язык, мышление, слово, лексика, фонология, мысль, значение, синоним, полисемия, фразеология, градуонимия, функционализм, иерархия, контекст.

Keywords: grammar, homonym, language, thinking, word, lexicon, phonology, thought, meaning, synonym, polysemy, phraseology, graduonymy, functionalism, hierarchy, context.

Ona tilini o'rGANISH NIHoyatda dolzarb vazifa. Inson tafakkurining erishgan eng yuksak yutuqlari, eng chuqur bilimlari va g'oyat otashin hislari, agar ular so'z vositasi bilan aniq va ravshan ifoda qilinmasa odamlar uchun noma'lumligicha qolaveradi. Hozir butun dunyoda 6 milliardga yaqin aholi mavjud bo'lib, ular 3000 ortiq tilda so'zlashadi. Shundan 200 tilda bir millionga yaqin, 70 tilda 5 milliondan ortiq, 13 tilda esa 50 milliondan ortiq kishi so'zlashadi. Qolganlarining har birida bir milliondan oz kishi gaplashadi. Barcha davlatlarda til juda muhim o'ringa ega va muloqotning asosiy quroli hisoblanadi.

"Agarda biror narsani aniq ifodalay olmas ekanmiz, bunda tilimizdan emas, balki uquvsiz mahoratimizdan gina qilishimiz kerak"- degan edi M.V. Lomonosov. So'z sa'natkorlari tilga alohida e'tibor berib keldilar, uslub va ifodaning sodda bo'lishini nutqda fikriy mujmallikka yo'l qo'ymaslikni targ'ib etdilar. Ulug' mutafakkir va shoir Alisher Navoiy "Tilga e'tibor-elga e'tibor" deb tilning ahamiyatini alohida ta'kitladi. Shoh va shoir Bobur esa og'li Humoyunga yozgan maktublaridan birida o'g'lining xatda fikr ravonligi va aniqligiga roya qilmaganligidan tashvishlanib "xatingni xud tashvish bilan o'qisa bo'ladi. Mundin nari betakalluf va ravshan va pok alfov bila bit, ham senga tashvish ozroq bo'lur ham o'qiguvchiga", - degan edi.

Bugungi kunda tilga tizim sifatida qaralayotgan bir paytda tilshinoslikda lisoniy birliklarning ma’naviy munosabati, ularning o’zora o’xshash va farqli xususiyati masalasi ko’pgina tilshunoslarni o’ziga qiziqtirib qo’ymoqda. O’tgan asrimizning 40-90-yillarigacha so’zlararo ma’noviy munosabatlar sinonimiya va antonim bilan chegaralanib qoldi. Sistim tahlil usuli asosida olib borilgan keyingi kuzatishlardan tizimda ma’naviy munosabat rang-barang ekanligi oydinlashib, ularning graduonimiya, funksionimiya, ierarxonimiya kabi turlari ham farqlanadi.

Tildan nafaqat ilm-fanda ba’lki kundalik hayotimizda, o’z ehtiyojlarimizni qondirish maqsadida ham foydalanamiz. Shu sababdan so’zlar bizning hayotimizda muhim o’rin egallaydi. So’z bu- o’z tovush qobig’iga ega bo’lgan, narsa- hodisalar, jarayonlar, shaxslar, belgi va miqdorlarni, xususiyatlarni, harakat va holatni, aloqa va munosabatlarni nomlash uchun hizmat qiladigan, mustaqil lug’aviy ma’noga ega bo’lgan, shuningdek, turli grammatik ma’no va vazifalarda qo’llanadigan eng muhim til birligidir. Tildagi so’zlar shakl va ma’no xususiyatlariga ko’ra turli munosabatda bo’ladi. Shu hususiyatlariga ko’ra so’zlar onomim, sinonim, antonim, paronim, uyadosh so’zlar kabi guruhlarga bo’linadi.

Omonim so’zlarining asl mazmunini o’rganar ekanmiz eng avvalo uning ma’nosiga to’xtolib o’taylik. Fandagi ko’p atamalar yunon tilidan olingani kabi “omonim” ham yunon tilidan olingan va ikki so’zning birikuvidan yasalgan, (homos bir xil, onomo yoki onumo nom) ma’nosini bildiradi ya’ni talaffuzi va yozilishi bir xil, ammo ma’nosi har xil bo’lgan so’zlardir. Uni birinchi marta qadimgi yunon faylasufi Aristotel uchratgan degan faraz mavjud, ammo bundan ham ilgari ishlatilgan bo’lishi mumkin. Omonimiya fenomeni - bu tilshunoslik adabiyotida juda uzoq vaqtdan beri qamrab olingan mavzu.

XX asr oxiriga kelib tilshunoslik fani emperik bosqichdan nazariy bosqichga ko’tarildi. Sinonim va polisemiya tillar uchun qonuniy hodisa, omonimiya esa tasodifiy hodisa tarzida baholandi. Aslida, omonimiya ham, til sistemasi uchun immanent va zaruriy qonuniyatlaridan biri hisoblanadi. Demak, omonimiya tillarning leksika va grammatikasini boyituvchi, til sistemasining qonuniy hodisadir. Ta’kidlash joizki, omonimiya-tilning deyarli barcha qatlamlari, tuzilishi va semantikasi jihatidan murakkabligi turlicha bo’lgan birliklari uchun universal hodisadir.

So’z ma’nosining rivojlanish qonuniyatlarini tekshirish, so’zlarining omonimlik, sinonimlik va antonimlik xususiyatlarini o’rganish tilininglug’at boyligini aniqlashga, turli lug’atlar tuzish ishlariga katta yordam beradi. Tilning ifoda rejasida bir- biriga qarama- qarshi holatlarni, miqdoriy o’lchamlardagi ziddiyatlarni ko’rish mumkin. Masalan, frazeologizm va sinonimiyada ifoda birliklarining mazmun birliklaridan ko’p bo’lsa, polisemiya va omonimiyada buning aksini ko’ramiz. Bunda shaklan bir xillikga ega bo’lgan lug’aviy birliklar ikki va

undan ortiq ma’no bilan ish ko’radi. Ikki va undan ortiq ma’no bir shaklga to’g’ri kelishi hollarini matn bartaraf etadi.

Omonimiya munosabatlarini belgilashda til birliklarining ikki tomoni ifoda va mazmun plani hisobga olinadi. Sinonimiya va antonimiyada til birliklarining mazmun plani asosga olinsa, omonimiyada ifoda plani etakchi sanaladi. Ifoda plani deganda ikki jihat nazarda tutiladi: talaffuz, aytish (tovush ifodasi) va yozilishi (harfiy ifodasi).

V.Urbutis “Tilimizdagи омонимнинг paydo bo’lishи til rivojlanishining natijasi deb qaralishi kerak, tilimizda омоним so’zlarning paydo bo’lishiga sabab bo’ladigan asosiy faktorlar bu- tilimizdagи leksik lug’atni boyitish zaruriyati va uni rivojlantirish” deyishi омоним hodisasini tarixiy kategoriya deb hisoblashidan darak beradi. G. Ismailov омонимларга bag’ishlangan maqolasida: “Ma’lumki, омонимиya tuzilishi bir xillikka asoslangan, ammo ma’no jihatdan bir-biriga bog’liq bo’lmagan leksik hodisa hisobланади. Turli xil tillarda, qolaversa, o’zbek tilida ham омонимиya leksemalar o’zaro ta’sirning paydo bo’lishu muhim ro’l o’ynaydi”- deb yozади.

Omonim tabiyatini o’rganishdagi hali ham o’z javobini topmagan masalarning biri- омонимнинг tilimizda paydo bo’lish usullari hisobланади. Qozoq tilidagi омоним mavzusi birinchi martta A. Baytursunov, Q. Jubanov kabi olimlarning ishlarida ma’lum darajada yoritildi, lekin maxsus o’rganilgani yo’q. G’Musabayevning “Hozirgi qozoq tili” kitobida омоним haqida dastlab aniq ma’lumot berildi. Olim омонимни quyidagicha yoritadi: “Paydo bo’lish jihatidan ham, ma’no jihatidan ham boshqa- boshqa bo’lgan, faqat aytishигина bir hil bo’lgan so’zlarni омоним deymiz”. Bundan tashqари K. Axanov ham o’zining tajribasida омонимни har jihatdan o’rganadi va asosan polisemiyadan farqli tomoni nimada ekanligini yoritishga e’tibor qaratadi. O’zbek tilshunosligida esa A. G’ulomov, M. Mirtojiev, M. Ravshanov, S. Usmonov, O’. Mo’mnov kabi olimlarning shu sohaga doir tadqiqotlari mavjud va bu masalani hal qilish uchun tegishli materialni beradi.

Turli xil til birliklarining o’xshash tovushlari tabiiy ravishda shakl va ma’noda assimetriyani keltirib chiqaradi. Aniqroq aytganda, bitta shaklning lisoniy birligi ma’nolari jihatidan bir-biri bilan bog’liq bo’lmagan bir nechta xususiyatlarga ega.

Tarixiy tilshunoslik nuqtai nazaridan O’zbek tilshunosligi Evropa tilshunosligidan biroz oldinda, ya’ni rus tilshunosligida омонимиya XX asrning 20-yillaridan boshlab tilshunoslар e’tiborini jalb qilgan bo’lsa, keyin o’zbek tilshunosligida bu hodisa qadimgi davrlardan boshlab badiiy san’at - tajnis sifatida o’rganilmoqda. Alisher Navoiy “Muhokamat-ul lug’atayn” asarida ushbu adabiy asbobga alohida e’tibor qaratadi va uni tilning o’ynoqligini ta’minlash vositasi sifatida baholaydi. Adabiy tilda til birliklarini омоним deb bilish uchun ular xuddi shunday talaffuz qilinadigan fonemik tizimda ifodalanishi kerak.

Shuni ta'kidlash kerakki, tilshunoslik tarixida omonimlarni, birinchi navbatda, leksik omonimlarni, ya'ni omoleksemalarni hisobga olish odatiy holdir. Shuning uchun tadqiqotchilarning e'tiborlari asosan leksik omonimiyanı o'rganishga qaratilgan. Masalan, M. Mirtadjiev va T. Aliqulovning dissertatsiyalari leksik homonimiya bag'ishlangan. Omonimiya faqat leksik jihat bilan chegaralanib qolmaydi. U umumbashariy tushuncha sifatida fonologik jihatdan tashqari, tilshunoslikning barcha sohalariga xosdir.

Turkologiyada, o'tgan asrning 60-yillaridan boshlab, til muhitida izomorfizmlarni aniqlash, turli xil tomonlarda bir xil hodisalarni aniqlashga urinishlar boshlandi. O'zbek tilshunosligida bu jarayon 1986 yilda atoqli o'zbek tilshunosi Fahri Kamol tomonidan boshlangan. Olimlar jamoasi tomonidan yozilgan "Hozirgi o'zbek adabiy tili" nomli birinchi jildda "Leksikologiya" bo'limida omonim uch guruhga bo'lingan: leksik ohanglar, affiks ohanglari va sintaktik omonimlar.

Tildagi har xil so'zning leksik ma'nosi boshqa so'zlar bilan munosabatga kirishganda reallashadi. Omonimlarning matndan tashqari yolg'iz o'zini ishlatish deyarli uchramaydi. Shunday ekan, matn omonim so'zlar tufayli sodir bo'lувчи qiyinchilikni bartaraf etadi.

So'zlarning ma'nosini ajratishda kontekstning o'rni beqiyosdir. Ayniqsa, omonimlarni bitta, yolg'iz turganda farqlash mumkin emas, demak, so'z ma'nosi V. Vinogradov aytganidek faqat kontekstdagina ajratib ko'rsatiladi. Kontekstda so'zning qaysi ma'noda qo'llanib turganligi aniq farqlanadi. Lekin shunda ham kontekst ma'noning ikki hil ko'rinishi tez-tez uchrab turadi. Shuning uchun omonimlik belgilarni aniqlashda har xil fikirlar taqdim etiladi. Misol, E.M. Galkina-fedruk rus olimi leksik omonimlarni ko'p ma'noli so'zlaran farqlash uchun ularning sinonimini topib solishtirish shart deydi. Agar ularni solishtirganda har bir so'z har xil sinonimga ega bo'lsa, ko'p ma'noli so'z hisoblanadi degan fikrni aytdi. Qisman bu fikr to'g'ri bo'lishi bilan birga, hamma vaziyatda ham o'rinali bo'lmasligini olim G'. Sodiqbekov isbotladi.

Omonimlarda ikki jihat uni boshqa uni boshqa shakldoshlik hodisalaridan keskin farqlab turadi.

1. Akustik - artikulyatsion tomonidan omonim so'zlar bir xil xossaga ega bo'ladi, yani o'xhash talaffuz qilinadi va eshitiladi. Masalan, qirq (son) – qirq (harakat), uch (soat) – uch (harakat), ot (nom) – ot (harakat) – ot (hayvon) kabi.

2. Grafik jihatdan ham ular bir xil tizimga ega kul (ot) – kul (harakat), yon (tomon) – yon (harakat) fe'lining buyruq istak mayli va hokazo.

Boshqa tillarda bo'lgani kabi o'zbek tilining shakldosh so'zlar tizimi o'zlashma, lug'aviy birliklar hisobiga kengaygan. O'zbek tili shakldosh so'zlar tizimini boyitishda arabcha lug'aviy o'zlashmalar alohida salmoqqa ega.

O'zbek tili ba'zi lug'aviy omonimiya paradigmalarining vujudga kelishida arab o'zlashmalarining fonetik qiyofasi alohida ahamiyat kasb etadi. Kuzatishlardan shu narsa seziladiki, ba'zi omonimik paradigmalarda arabcha lug'aviy birliklar o'zlarining asl qiyofasini saqlagan bo'lsa, ba'zan ularning fonetik qiyofasida o'zgarish yuz bergen. Ana shu o'zgarish ularni til lug'at tarkibidagi boshqa lug'aviy birlik bilan omonimlashuviga sabab bo'lgan. O'zbek tili lug'aviy omonimiyasini shartli ravishda ikki guruhga ajratish mumkin.

1) Omonimiya qatoridagi a'zolarning barchasi arab o'zlashmalari tavsifida bo'ladi: (arabcha – arabcha so'zlar omonimiyasi)

2) Omonimiya qatoridagi a'zolarning biri arabcha, boshqasi o'zbekcha yoxud arab tiliga mansub bo'lмаган boshqa o'zlashmalar tavsifida bo'ladi: (arabcha va arabcha bo'lмаган so'zlar omonimiyasi).

Shunday qilib, omonimiya - bu leksik-semantik birlik bo'lib, u nutqning ekspressivligini yaratish vositasi bo'lib xizmat qiladi. Omonimiya qiziq, chunki biron bir tilda u ifoda etishning qandaydir paradoksal ma'nosini yaratishga qodir.

Adabiyotlar:

1. Shukurov O. Boymatov B.O'zbek tilining ma'nodosh so'zlar lug'ati. Toshkent. 2009. 7-bet
2. Hamroyev M. "Ona tili" Toshkent 2007. B.94
3. Azizov O. Tilshunoslikka kirish. - T. O'qituvchi, 1996. B.66.
4. Raxmatullaev Sh. O'zbek tili omonimlarining izohli lug'ati. B.119.
5. Aytbayev D "International Journal of Innovative Technologies in Social Science". 2018. B.31.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada omonim so'zlarning o'zbek va qozoq tillaridagi ahamiyati va qiyosiy tahlili yoritilgan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье рассматривается значение и сравнительный анализ слов-омонимов в узбекском и казахском языках.

SUMMARY

This article discusses the importance and comparative analysis of homonymous words in Uzbek and Kazakh languages.

**РУС ТИЛИ ФАНИ ЎҚИТУВЧИСИДА МАДАНИЯТЛАРАРО
МУЛОҚОТ КОМПЕТЕНЦИЯСИНИ ШАКЛАНТИРИШНИНГ ЎЗИГА
ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ**

Юсупова Ф.М.

*Тошкент вилояти Чирчик давлат педагогика институти
Факультетлараро рус тили кафедраси уқитувчisi*